



SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING XALQARO-HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI

Maratova Shaxsanem Marat qizi,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya unversiteti
Xalqaro huquq fakulteti magistranti
Tel: +998 93 488 14 04
E-mail: shaxsanemmaratova03@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellektdan (SI) foydalanishni xalqaro-huquqiy tartibga solish bilan bog'liq muammolar majmui tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqot sun'iy intellekt va uning huquqiy maqomiga universal ta'rifning yo'qligi, yurisdiksiyalar to'qnashuvi, avtonom tizimlar faoliyati uchun javobgarlikni taqsimlash masalalari, shuningdek harbiy ishlar va odil sudlov kabi nozik sohalarda sun'iy intellektni qo'llash bilan bog'liq xavflarni o'rganishga qaratilgan. Ishning maqsadi ushbu muammolarni tizimlashtirish hamda shakllanayotgan global huquqiy paradigma doirasida ularni hal etishning mumkin bo'lgan yo'llari bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, AI, xalqaro huquq, raqamli texnologiyalar, algoritmik boshqaruv, aqlli robotlar.

ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Маратова Шахсанем Марат кизи,
магистрант факультета международного права
Университета мировой экономики и дипломатии
Тел: +998 93 488 14 04



E-mail: shaxsanemmaratova03@gmail.com

Аннотация. В статье проводится системный анализ комплекса проблем, связанных с международно-правовым регулированием использования искусственного интеллекта (ИИ). Рассматриваются вопросы отсутствия универсального определения ИИ и его правового статуса, коллизии юрисдикций, распределение ответственности за деятельность автономных систем, а также риски, возникающие при применении ИИ в таких чувствительных сферах, как военное дело и правосудие. Цель исследования заключается в систематизации выявленных проблем и разработке научно обоснованных предложений по возможным механизмам их разрешения в рамках формирующейся глобальной правовой парадигмы.

Ключевые слова: искусственный интеллект, ИИ, международное право, цифровые технологии, алгоритмическое управление, умные роботы.

PROBLEMS OF INTERNATIONAL LEGAL REGULATION OF THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Maratova Shaxsanem Marat qizi,

Master's student of the Faculty of International Law

University of World Economy and Diplomacy

Tel: +998 93 488 14 04

E-mail: shaxsanemmaratova03@gmail.com

Abstract. This article provides a systematic analysis of the key issues related to the international legal regulation of artificial intelligence (AI). The study examines the absence of a universal definition of AI and its legal status, conflicts of jurisdiction, the allocation of liability for the operation of autonomous systems, as well as the risks arising from the application of AI in sensitive areas such as military



affairs and justice. The purpose of the research is to systematize these challenges and to develop scientifically grounded proposals for possible legal solutions within the framework of the emerging global legal paradigm.

Keywords: artificial intelligence, AI, international law, digital technologies, algorithmic governance, intelligent robots.

Kirish

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining zamonaviy jamiyatning deyarli barcha sohalariga — harbiy ish va adliyadan tortib, sog'liqni saqlash, ta'lim, iqtisodiyot va moliyagacha — jadal kirib borishi texnologik taraqqiyot bilan amaldagi xalqaro huquq me'yorlari o'rtasida jiddiy tafovut mavjudligini yaqqol namoyon qildi. Avtonom tizimlarning inson aralashuvisiz qaror qabul qilishi inson huquqlari, davlat suvereniteti va xalqaro xavfsizlikka bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, amaldagi xalqaro-huquqiy tartibga solishning yetarliligi va moslashuvchanligi masalasi keskin dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Sun'iy intellektning huquqiy tabiati haqida yagona tushunchaning yo'qligi, turli davlatlar tomonidan qo'llanilayotgan normativ yondashuvlarning tarqoqligi va texnologik xavflarning oldindan aniq baholanmasligi natijasida "me'yoriy bo'shliq" vujudga kelmoqda. Shu bilan birga, SI har bir davlatning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim strategik omilga aylanmoqda. Biroq uning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, xavfsizlik, shaffoflik va javobgarlik bilan bog'liq huquqiy masalalar ham keskinlashib bormoqda [1]. Ushbu borada bir nechta olimlar izlanishlar olib borgan bo'lib, ular L.Floridi sun'iy intellektni «axborot agenti» sifatida baholaydi va uning faoliyati inson manfaatiga xizmat qilishi uchun «yumshoq etik standartlar», shaffoflik va javobgarlik mexanizmlari zarurligini e'tirof etgan bolsa, V.Dignum «ma'sulyatli SI» konsepsiyasini ishlab chiqqan. Uning fikricha, SI yaratishda etik prinsiplar - adolat, zarar yetkazmaslik, shaffoflik, javobgarlik - majburiy bo'lishi kerak [2].



1970-yillarda AQShda sun'iy intellekt va robototexnikani huquqiy tartibga solishga doir ilk ilmiy izlanishlar boshlangan bo'lib, o'sha davrda SI bo'yicha 100 dan ortiq universitet ta'lim dasturi faoliyat yuritgan [3]. 1990-yillardan boshlab ushbu yo'nalish boshqa davlatlarga ham tarqaldi va SI qo'llanilishiga doir dastlabki normativ hujjatlar qabul qilina boshlandi. 2015-yildan e'tiboran esa sun'iy intellekt va robototexnika muammolari global miqyosda tan olinib, transmilliy tus oldi.

Shu munosabat bilan SI sohasida javobgarlik, nazorat, etik normalar, yurisdiksiya va inson huquqlarini ta'minlash masalalarini kompleks tahlil qilish zarurati yuzaga keldi. So'nggi yillarda xalqaro maydonda ham, alohida davlatlar milliy qonunchiligi darajasida ham sun'iy intellektni huquqiy tartibga solishga bo'lgan e'tibor keskin ortmoqda [4, 93-b.]. Bugungi kunda axborot huquqi tizimida sun'iy intellekt huquqining mustaqil kompleks huquqiy institut sifatida shakllanishi obyektiv zaruriyatga aylanib bormoqda [5].

Sun'iy intellektning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati

Iqtisodiyotga sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal kirib kelishi nafaqat ulkan transformatsion salohiyatni, balki davlatlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi kuchayib borayotganini ham ko'rsatmoqda. Har yili dunyo davlatlari SI texnologiyalarini rivojlantirishga yirik moliyaviy resurslar yo'naltirmoqda. Xalqaro darajada olimlar va tahlilchilar tomonidan SI rivojlanishi bilan bog'liq bir qator xalqaro-huquqiy muammolar ajratib ko'rsatilmoqda [6]. Prognozlarga ko'ra, 2024-yilda dunyo bozorida sun'iy intellekt texnologiyalariga yo'naltiriladigan mablag' hajmi 140 milliard AQSh dollarini tashkil etgan.

Yetakchi tahlil markazlari sun'iy intellektni global taraqqiyotning asosiy omiliga aylanishini bashorat qilmoqda. Shu bilan birga, texnologik tengsizlikning kuchayishi, ayrim davlatlarning raqamli ustunlikka ega bo'lishi hamda huquqiy to'qnashuvlar ehtimolining oshishi ham qayd etilmoqda. Shu sababli innovatsiyalar bilan fundamental huquq va erkinliklarni himoya qilish o'rtasida muvozanatni ta'minlash dolzarb vazifaga aylanmoqda.



Sun'iy intellektni ustuvor rivojlantirish davlatlarga uzoq muddatli raqobatbardosh ustunliklarni ta'minlaydi, texnologik avtonomiyani mustahkamlaydi va iqtisodiy barqarorlikni oshiradi. Kundalik hayotda fuqarolar SI texnologiyalaridan tasvir, ovoz, video qayta ishlash, ta'lim va ishlab chiqarish jarayonlarida keng foydalanmoqda. SI vaqt, mehnat va moliyaviy resurslarni tejash imkonini berib, qaror qabul qilish aniqligini oshiradi va murakkab jarayonlarni optimallashtirishga xizmat qiladi [7].

Sun'iy intellekt sohasida xalqaro-huquqiy tartibga solish yo'nalishlari

Hozirgi bosqichda SI ni xalqaro-huquqiy tartibga solish quyidagi ustuvor yo'nalishlarda rivojlanmoqda[8]:

Sun'iy intellekt bo'yicha yagona xalqaro standartlar va tamoyillarni ishlab chiqish — shaffoflik, xavfsizlik, etika va mas'uliyat;

SI ustidan xalqaro nazorat va monitoring mexanizmlarini yaratish — xavflarni baholash, audit va sertifikatlash tizimlari;

Avtonom tizimlarning huquqiy maqomini belgilash — ishlab chiquvchi, operator va foydalanuvchi mas'uliyatini aniqlashtirish;

Harbiy sohada SI qo'llanilishini tartibga solish — avtonom o'ldiruvchi tizimlarni cheklash yoki taqiqlash;

Inson huquqlarini SI qo'llanilishi sharoitida himoya qilish — shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, diskriminatsiyaga qarshi mexanizmlar;

Sun'iy intellekt sababli yetkazilgan zarar uchun javobgarlik normalarini ishlab chiqish;

Xalqaro hamkorlik va ma'lumot almashuvini rivojlantirish;

SI tizimlarining kiberxavfsizligini ta'minlash;

SI ni o'qitishda foydalaniladigan ma'lumotlarni huquqiy tartibga solish;

Sun'iy intellekt bo'yicha xalqaro shartnomalar va konvensiyalarni qabul qilish.

So'nggi yillarda SI ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tibbiy xizmatlarni yaxshilash va ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bilan birga, algoritmik



diskriminatsiya, algoritmik monopoliya va etik xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli texnologik rivojlanishni rag‘batlantirish bilan bir qatorda, xavflarning oldini olish ham davlatning muhim boshqaruv vazifalaridan biri hisoblanadi [9].

Xavfsizlik va etik masalalar

Oksford universiteti professori Nick Bostrom ta’kidlaganidek, “agar superintellekt inson qadriyatlariga mos kelmasa, u insoniyat manfaatlariga zid harakat qilishi mumkin. Bu fikr SI ning nazoratsiz rivojlanishi global xavfsizlik uchun jiddiy tahdid tug‘dirishi mumkinligini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Shu bois sun’iy intellekt sohasida xavfsizlik va etik standartlarni ishlab chiqish bugungi kunda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi”. [10]

Sun’iy intellekt va ijtimoiy huquqlar.

Sun’iy intellektning rivojlanishi fuqarolik jamiyatida ijtimoiy ta’minot huquqining amalga oshirilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Algoritmik boshqaruv tibbiyot, ijtimoiy yordam taqsimoti va aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash jarayonlariga joriy etilmoqda. Bu bir tomondan xizmatlar samaradorligini oshirayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, algoritmik xatolar, shaffoflik yetishmasligi va diskriminatsiya xavfini yuzaga keltirishi mumkin.

Davlat boshqaruvida SI va transchegaraviy munosabatlar

Sun’iy intellektning davlat boshqaruvidagi qo‘llanilishi ham xalqaro huquqda yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli davlat xizmatlari, soliq va ijtimoiy himoya tizimlarida SI dan keng foydalanish ma’lumotlar xavfsizligi va inson huquqlarini ta’minlash mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda [11].

Shuningdek, xalqaro biznes jarayonlarida SI ning keng qo‘llanilishi transchegaraviy iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda yangi yondashuvlarni talab etmoqda.



Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi uning huquqiy maqomi, javobgarligi va etik tamoyillarini aniq belgilash zaruratini keltirib chiqarmoqda. Xalqaro hamjamiyat oldida turgan eng muhim vazifa — sun'iy intellektning xavfsiz, adolatli va inson huquqlariga mos tarzda qo'llanilishini ta'minlay oladigan universal huquqiy mexanizmni shakllantirishdan iborat.

References

1. А. В. Минбалеев проблемы регулирования искусственного интеллекта Институт государства и права РАН, г. Москва, Южно-Уральский государственный университет, г. Челябинск DOI: 10.14529/law180414

2. Dignum, V. (2019). Responsible Artificial Intelligence: How to Develop and Use AI in a Responsible Way. Springer. ISBN 978-3-030-30370-9

3. Кашкин С. Ю., 2019 * Кашкин Сергей Юрьевич, доктор юридических наук, профессор, заведующий кафедрой интеграционного и европейского права Московского государственного юридического университета имени О.Е. Кутафина (МГЮА), заслуженный юрист Российской Федерации

4. Арзуманян А.Б. Искусственный интеллект: вопросы международно-правового регулирования//Северо-Кавказский юридический вестник. 2021. No 3. (Arzumanyan A.B. Artificial intelligence: issues of international legal regulation//North Caucasian Legal Bulletin. 2021. No 3.)

5. Полякова Т.А., Камалова Г.Г. «Право искусственного интеллекта» и его место в системе информационного права//Правовое государство: теория и практика. No 3 (65) 2021. <https://pravgos.ru/index.php/journal/article/view/366/308> (Polyakova T.A.,



Kamalova G.G. "The law of artificial intelligence" and its place in the information law system//The rule of law: theory and practice. No 3 (65) 2021)

6. Петрова В.А. Искусственный интеллект: проблемы международно-правового регулирования / В.А. Петрова // Научный альманах "В зеркале права". — Липецк : Липецкий государственный педагогический университет им. П.П. Семенова-Тян-Шанского, 2024. — С. 400–403.

7. Владимиров И.А., Иксанов Р.А.2, Данилов К.И.3 проблемы правового регулирования отношений с использованием искусственного интеллекта теоретико-исторические правовые науки / theoretical and historical legal sciences

8. Хамдамова Фируза Уразалиевна, международно-правовое регулирование искусственного интеллекта: эволюция и особенности развития. Докторант Национального центра Республики Узбекистан по правам человека на соискание степени доктора юридических наук Доктор философии по юридическим наукам (PhD).

9. Timur Abdulloev Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish muammolari Жамият ва инновациялар–Обществоиинновации–Society and innovations 2181-1415/© 2025in Science LLC.

10. Bostrom, Nick. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. Oxford: Oxford University Press, 2014. 352 b. ISBN 978-0199678112.

11. Floridi L., Cowls J. "A Unified Framework for AI Ethics and Governance" // AI & Ethics, 2021.